

**ILMIY TADQIQOTLAR
SAMMITI
2022**



ILMIY TADQIQOTLAR SAMMITI

**Respublika ko‘p tarmoqli ilmiy
sammit materiallari
TO‘PLAMI**

II

**22.02.2022
TOSHKENT**

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
INNOVATSION RIVOJLANISH VAZIRLIGI
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI FANLAR AKADEMIYASI
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI YOSHLAR ISHLARI AGENTLIGI
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI MIRZO ULUG'BEK NOMIDAGI
O'ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI**



ILMIY TADQIQOTLAR SAMMITI

**Respublika ko'p tarmoqli ilmiy sammit
materiallari to'plami II – jildi.
(22-fevral, 2022-yil)**



TOHIKEHT – 2022

Mazkur ko'p tarmoqli respublika ilmiy ishlanmalar va tadqiqotlar sammiti O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Yoshlarni ilm-fan sohalariga jalb etish va ularning tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2019-yil 30-avgustdagi PQ-4433-son Qarorida belgilangan vazifalar ijrosini ta'minlash maqsadida Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti tomonidan masofaviy shaklda o'tkazilib, nashrga tavsiya etildi.

MAS'UL MUHARRIRLAR:

Sagdullaev Anatoliy Sagdullaevich – O'zR. Fanlar akademiyasi akademigi.
Murtazaeva Rahbar Hamidovna – tarix fanlari doktori, professor.

TAHRIR HAY'ATI:

Abdurashid Turg'unov – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).
Komil Ibrigitimov – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).
Zarina Abduazimova – falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).
G'ulom Abdurahmonov – kimyo fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).
Sherali Qo'ziev – biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

TEXNIK MUHARRIRLAR:

**Gulbonu Kuvatova, Sirojiddin Saloxov, Asila O'roqova,
Shavkat Axmadov, Akmal Shukurov, Bobur Abdullaev.**

TASHKILY QO'MITA KOTIBI:

Usmanov Abdumo'min Xolmo'minovich

- To'plamga kiritilgan ma'lumotlar uchun mualliflar mas'uldir!

Intensiv pakana olma daraxtlarning o'sishi va hosildorligiga innovatsion texnologiya va tejamkor omillarining ta'siri.

Yunusov R., Buxoro davlat universiteti,

Ganiyeva F.A., Buxoro davlat universiteti,

Annotatsiya. Mazkur maqolada sanoatlashtirilgan intensiv mevachiligida pakana olma bog'larida istiqbolli, muttasil mo'l va yuqori sifatli hosil beradigan navlarni parvarishlashda innovatsion texnologiya va tejamkor omillarni qo'llash, kasallik va zararli organizmlardan himoya qilish natijasida pakana olma navlari daraxtlarining o'sishi, rivojlanishi va hosil shakllanish jarayonlarini yaxshilangani keltirilgan.

Kalit so'zlar. Intensiv mevachilik, pakana olma navlari, vegetativ payvandtag, innovatsion tejamkor texnologiya, tomchilatib sug'orish, parvarishlash, zararli organizmlar, o'sish va rivojlanish, hosildorlik, yuqori samaradorlik.

Аннотация. В данной статье приведено состояние промышленных садоводства на основе применения новых сортов интенсивного типа привитые на средне-слаборослом подвое М-9, а также защита этих садов от болезни и вредителей привело к нормальному росту и плодоношения деревьев яблони.

Ключевые слова. Интенсивное плодоводство, средне-слаборослые яблони, вегетативные подвои, инновационные технологии, капельное орошение, возделывание, вредные организмы, рост и плодоношение, высокая рентабельность.

Kirish. Mamlakatimizda mevachilik sohasini tubdan rivojlantirish uchun ichki bozorni turli xil mevalar bilan ta'minlash va xorijga eksport qilish salohiyatini keskin kuchaytirish maqsadida mevachilik sohasini rivojlantirib meva ishlab chiqarish hajmini yana sezilarli darajada oshirish uchun ulkan vazifalar qo'yilgan.

Mazkur ilmiy tadqiqot ishlari 2020-2023 yillar davomida Buxoro viloyati, Buxoro tumani Bog'i Kalon MFY hududida joylashgan MCHJ "Siyovush Agro" bog'dorchilik fermer xo'jaligida o'tkazib kelinmoqda.

Buxoro viloyatining iqlimi keskin kontinental hisoblanadi, ya'ni qishi sovuq va yozi esa issiq bo'ladi. Yil davomida o'rtacha 125-175mm yog'ingarchilik bo'ladi va asosan yog'ingarchilik bahor faslini boshida, kuzning oxirgi oylarida bo'ladi. Viloyat sharoitida issiq quyoshli kunlar davom etilishi ko'p yillik ma'lumotlarga ko'ra 240 kungacha davom etadi. Havoning o'rtacha harorati 26-30°C ni tashkil qiladi. Viloyat sharoitida eng issiq kunlar bu iyun-iyul oylarida kuzatiladi. Havoning kunduzgi harorati esa 38.7-46.2°Cga va undan ham yuqori bo'lishi mumkin. Yillar bo'yicha shu aniqlandiki, qishi quruq va sovuq bo'ladi, yanvar oyida

esa harorat 4.0°C dan -13°C gacha bo'lishi kuzatiladi. Havoning o'rtacha nisbiy namligi 40-60%ni tashkil etadi.

Buxoro viloyatida sug'oriladigan yerlarning umumiy maydoni 274.9 ming gektardan iborat bo'lib va ekiladigan maydoni esa -270.0 ming gektarni tashkil qiladi.

Tajriba obyekti va natijalari. Buxoro tuman "Bog'i Kalon" MFY hududida joylashgan MCHJ "SiyovushAgro" bog'dorchilik fermer xo'jaligining tuprog'i qadimdan sug'oriladigan kuchsiz sho'rlangan tuproqdan iborat bo'lib, suv sathining yuza joylashishi bilan (0.80-1.50m) boshqa hududlardan keskin farqlanadi. Mexanik tarkibi bo'yicha o'rtacha soz tuproqli hisoblanadi. Sug'oriladigan dala sharoitida tuproq hosil bo'lishi jarayonlarida ona jinsi, reliefi, sizot suvlari kabilar agroirrigatsion yotqiziqlarining etilishiga bevosita bog'liqdir.

Buxoro tumani, "Bog'i Kalon" MFY hududida joylashgan MCHJ "SiyovushAgro" bog'dorchilik fermer xo'jaligida yetishtiriladigan pakana olma bog'laridan olingan tuproq namunalari "Uzdaverloyiha" instituti "Buxoro viloyat yer loyiha" bo'linmasi laboratoriyasida agrokimyoviy tahlillar qilingan va tuproqlarni chuqurligi bilan tuproqdagi agrokimyoviy xossalarni o'zgarishi va chuqurlik oshishi bilan bir vaqtda bu ko'rsatkichlar kamayib borishi aniqlangan [1.2.3].

Tadqiqot obyekti sifatida biologik xususiyatlari bilan farq qilinadigan pakana olma navlari, payvandtag kombinatsiyalari va ko'chat qalinligi olingan. Tajribada o'rganilgan navlar – Goldspur, Gala, Jeremin, Fudji va payvandtagi esa sekin o'suvchi M-9 payvandtag, Goldspur va Golden Delishes navlarida o'rta o'suvchi MM-106 payvandtagdan foydalangan. Bir yillik olma ko'chatlari mart oyida 2020 yilda intensiv bog'ga $4.0 \times 1.0\text{m}$, $4.0 \times 1.2\text{m}$, $4.0 \times 1.4\text{m}$, $4.0 \times 1.6\text{m}$, $4.0 \times 1.8\text{m}$ $4.0 \times 2.0\text{m}$ hamda $3.0 \times 1.0\text{m}$, $3.0 \times 1.5\text{m}$ va $3.0 \times 2.0\text{m}$ tartibda joylashtirilgan [4,5,6].

Shuni alohida qayd etish lozimki, vegetativ yo'l bilan ko'paytirilgan daraxtlarni afzalligi shundan iboratki, ularga ulangan nav-kombinatsiyalari bo'yicha pastligi, o'sish kuchi sustligi, maqbul rivojlanishi va bu ko'rsatkichlar pirovard natijalarda olma daraxtlarini hosildorligi keskin ko'payishiga olib keldi. Boshqa tipdagi mevali bog'lardan deyarli o'zining yuqori hosildorligi va sifati bilan farq qilinadi.

Buxoro tumani, "Bog'i Kalon" MFY hududidagi MCHJ "SiyovushAgro" bog'dorchilik fermer xo'jaligida 2020-2023 yillarda pakana olma daraxtlarini zararli organizmlardan kompleks himoyalash kabi agrotexnik chora-tadbirlar, xo'jalikda mavjud agronomlarning qat'iy nazoratida o'tkaziladi va bu daraxtlarning maqbul o'sishiga va hosildorlikni ko'payishiga olib keladi.

Amal davrida intensiv mevali bog'larga yil davomida 220-250kg azotli, 180-200kg fosforli va 45-60kg/ga kaliyli o'g'itlar sof holda berildi. Intensiv olma daraxtlarini tejamkor tomchilatib usulda sug'oriladi, sug'orishda rezinali

shlanglardan foydalanildi, suv 2-3 marotaba tejam bo'ldi. Bu usulning afzalligi shundan iboratki, suv tomchilari bevosita daraxt talab qiladigan joylarga o'g'it aralashmasi bilan bir vaqtda beriladi. SHuningdek, yuqorida ko'rsatilgan agrotexnik chora-tadbirlar ertalab va kechki vaqtda harorat pasaytirilganda o'tkazilgan.

O'tkazilgan tajriba natijalari shuni ko'rsatdiki, vegetativ sekin o'suvchi payvandtaglarga ulangan pakana olma daraxtlari maqbul rivojlanadi, hosil elementlari yaxshi shakllanadi va ikkinchi yildan boshlab bir daraxtdan 0.4-2.0kg gacha sifatli olma hosili berdi.

Shuningdek, olma parvarishida innovatsion tejamkor texnologik usullarni qo'llash, tomchilatib sug'orish, kimyoviy vositalarni qo'llashda preparatlarni kompleks kasallik va zararkunandalarga ta'siri, ulardan himoya qilish intensiv mevalilikda eng asosiy va maqbul agrotexnik tadbirlar turiga kiradi, natijada kasallik va zararkunandalardan to'liq himoya qilib, pakana olma daraxtlarini yaxshi o'sishiga imkon beradi hamda muttasil mo'l va sifatli hosil olishiga sharoit yaratadi.

O'tkazilgan tadqiqot natijalarimiz shundan dalolat beradiki intensiv olma daraxtlari pakana o'suvchi payvandtagning biologik xususiyatlari, ko'chat qalinligining o'sish va hosil elementlarining shakllanishiga ta'siri hamda pakana olma daraxtlarida yorug'lik maqbul rejimini belgilanganda bu olma daraxtlarida yorug'lik rejimini yaxshilanishi bu daraxtlarda optimal o'sishi va rivojlanish jarayonlari qayd etildi.

Shuni qayd etish lozimki, pakana sekin va o'rta o'suvchi payvandtaglarga ulangan olmaning Goldspur va Golden Delishes navlarida 2020 yilda daraxtning pastki qismida joylashgan shox-shabbalarda 68%, o'rtangi yarus (ichki qism) 56.0% va yuqori qismida esa 74.0% yorug'lik tashkil qildi. Xuddi shunga yaqin natijalar 2021 yilda o'tkazilgan tajribalarda ham kuzatildi. Lekin, shuni alohida qayd etish lozimki, olma daraxtlarining o'sishi natijasida yorug'lik foizi daraxtlar yaruslari bo'yicha va tana qismida 2-4% gacha kamaygani aniqlandi.

Xulosa. Sekin va o'rta o'suvchi payvandtaglarga ulangan pakana olma bog'larida nav-payvandtag kombinatsiyalarini tanlab olish, mevadi daraxtlarni biologik xususiyatlari, tuproq-iqlim sharoitiga bo'lgan talablarini inobatga olish, to'g'ri shakl berish va kesish hamda zamonaviy innovatsion tejamkor texnologiyalarni qo'llash, kasallik va zararkunandalar va kasalliklarga ilmiy asoslangan kurash tadbirlarini qo'llash katta iqtisodiy samaradorlik keltiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Yunusov, R., Ganieva FA (2021). Studying the different formations of apple trees in intensive orchards. Tsentр научных publikatsiy (buxdu.uz), 6(6).

2. Ganieva, F. A., & Yunusov, R. (2021). Rost i razvitiya vegetativno-razmnojaemykh podvov yabloni v zavisimosti ot plotnosti posadki. Stolitsa Nauki". M.
3. Atayeva, Z., Yunusov, R., Nazarova, S., & Ganiyeva, F. (2020). INFLUENCE OF CULTIVAR COMBINATIONS AND SEEDLING THICKNESS ON THE FORMATION OF PHYTOMETRIC INDICATORS AND PRODUCTIVITY OF PEARTREES IN INTENSIVE ORCHARDS. Tsentralnaya nauchnaya publikatsiya (buxdu. uz), 10(9).
4. Amrillojeva, Ganiyeva Feruza, and Yunusov Rustam. "THE GROWTH, DEVELOPMENT AND YIELD OF APPLE TREES IN INTENSIVE FRUIT ORCHARDS ARE HARDWOOD CUTTING COMBINATIONS AND THEIR DEPENDENCE ON THE THICKNESS OF SEEDLING". NVEO-NATURAL VOLATILES & ESSENTIAL OILS Journal | NVEO (2021): 9591-9595.
5. The effect of cutting (pruning) methods and levels in intensive gardens on the formation of apple trees. Yunusov, R., Ikramova M.L., Ganieva F.A., Shadiyeva S.S. ResearchJet journal of Analysis and Inventions. ISSN: 2776-0960 Volume 3, Issue 1 Jan., 2022. <https://researchjet.academiascience.org>.
6. Ганиева Ф.А., Юнусов Р. Бухоро вилояти шароитида интенсив олмазорларда ўсиш ва ҳосилдорликнинг нав-пайвандтаг комбинациялари ҳамда кўчат қалинлигига боғлиқлиги. Монография. Бухоро. Дурдона, 2021й, 102б.

267.	<i>O'telbayev A.A.</i> Monitoring the condition of the deposit in mining enterprises. Modern methods of determining the location of minerals	1014
268.	<i>G'aybullayeva D.M.</i> "Ishonch" tushunchasining nazariy asoslari	1018
269.	<i>G'aniyeva M.</i> O'simliklar ekalogiyasiga oid mavzularni o'qitishda pedagogik texnologiyalardan foydalanish	1021
270.	<i>Farxatov Musajon Botirjon o'g'li</i> <i>O'zbekiston ta'lim tizimida islohatlar davri.</i>	1027
271.	<i>Yuldashev Ulmasbek Abdubanapovich</i> <i>Samatboyeva Marjona Baxtiyor qizi</i> <i>Ta'limni axborotlashtirish sharoitida web-dizayn kursini flipgrid dasturining imkoniyatlaridan foydalanish</i>	1031
272.	<i>Adizov Azizjon Rajab o'g'li, master's student,</i> <i>Analysis of the attractiveness of the foreign investment climate in our country</i>	1034
273.	<i>Yusupjonov Mukhriddinjon Odiljon ogli</i> <i>Improvement of asphalt pavements during construction and repair, taking into account foreign experience.</i>	1039
274.	<i>Berkinov Oybek Toxir o'g'li</i> <i>Kibermakonning tahdidlar maydoniga aylanishining obyektiv asoslari va nazariy tahlili</i>	1042
275.	<i>Xolmurodova D.A</i> <i>Maktabgacha yoshdagi bolalarni ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish muammolari</i>	1048
276.	<i>Bo'riev Bobonazar</i> <i>Muxiddinov Feruza</i> <i>O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti talabalarining psixologik va jismoniy tayyorgarligini sport yakka o'yinlari orqali shakllantirish</i>	1051
277.	<i>G'uzorov B.U.</i> <i>Maktablarda o'rta osiyo tabiiy o'lkasining geografik o'rni, chegaralari va o'ziga xos xususiyatlari mavzusini o'qitishda swot metodidan foydalanish</i>	1054
278.	<i>Adilova Charos Alim qizi</i> <i>Ingliz tilini klasterli yondashuv asosida o'qitish tamoyillari</i>	1058
279.	<i>Yunusov R.,</i> <i>Ganiyeva F.A.,</i> <i>Intensiv pakana olma daraxtlarning o'sishi va hosildorligiga innovatsion texnologiya va tejamkor omillarining ta'siri.</i>	1062
280.	<i>Jo'ramirzayev Iqboljon</i> <i>Imyaminova Sh.S.</i> <i>Nemis tilshunosligida frazeologizmlarning tutgan o'rni</i>	1066
281.	<i>Turayev Dilshod Shodavlatovich</i> <i>Baqlajonning birinchi avlod duragaylarida ilmiy izlanishlar</i>	1069
282.	<i>Turayev Dilshod Shodavlatovich</i> <i>Eshqobilov Behzod, Soatov Xusniddin</i> <i>Qishloq xo'jaligi mahsulotlarga mikrobiologik usulda ishlov berish</i>	1072